

PEDAGOGNING KASBIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING BA'ZI MASALALARI

¹Kamolova Shirinoy Usarovna, katta o‘qituvchi

²Majidova To‘lg‘anoy, 2-bosqich magistiri

Jizzax davlat pedagogika universiteti

shirin.kamolova.67@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada ta’lim imkoniyatlardan foydalanib yosh mutaxassislarinig pedagogik-psixalogik kompetensiyasini o‘rganish, kompetenlik kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish hamda pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirishning mazmun mohiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik-psixalogik kompetensiya, bilim, ko‘nikma, malaka, kompetentlik, psixologik, metodik, informatsion, kommunikativ kompetentlik, axborot-kommunikatsion texnologiya, pedagogik faoliyat.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimi rivojlanishining zamonaviy bosqichida o‘qituvchi pedagoglarining salohiyatini yanada yuksaltirish ijodiy va kasbiy o‘z o‘zini takomillashtirishga mutaxassislarni tayyorlashning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratilmoqda.

Ta’lim imkoniyatlardan foydalanib yosh mutaxassislarinig pedagogik-psixalogik kompetensiyasini oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun pedagoglarimiz yetarli darajada bilimga, amaliy ko‘nikmalarga, pedagogik-psixologik bilimdonlikga, layoqatga ega bo‘lishlari lozim. Pedagoglarning psixologik-pedagogik kompetentlik darajasini ko‘plab olimlar o‘rganib tatqiqot ishlari olib borishgan.

Mustaqil davlatlar hamdo`stiligi mamlakatlaridan O.A.Abdulina, Ye.M.Borisova, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina,M.I.Lukyanova, A.S.Markova, S.N.Mironenko, V.A.Slasteninlar kasbiy kompetentlikni shakllantirish hamda rivojlantirishda bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar pedagoglik kasbi jamiyatdagi eng mas’uliyatli kasblardan biri bo‘lib, qadimgi vaqtlardan unga katta e’tibor qaratilgan. Ayniqsa, kundan-kunga taraqqiyot sari rivojlanib borayotgan mustaqil mamlakatimizda o‘z kasbining ustasi, yuksak zamonaviy kasbiy bilimlarga ega bo‘lgan, mahoratli, davr va jamiyat talablarini nozik va zukko tushuna oladigan, muxtasar qilib aytganda kasbiy jihatdan bilimdon malakali pedagog kadrlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda.

Maxsus kompetenlik kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim, ko‘nikma, malakanizm izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

- Psixologik kompetentlik - pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtiroychilar bilan ijobjiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida

anglay olish va bartaraf eta olish; - Metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

- Informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

- Kreativ kompetentlik pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish; Innovatsion kompetentlik pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

- Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish;

- Hozirgi kunda ta’lim tizimida kechayotgan tub o‘zgarishlar pedagog va o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlik darajasini ya’ni o‘z ustida ishlash uchun yetarli darajada imkoniyatlar mavjudligini,inobatga olib imkon darajasida foydalanib kasbiy salohiyatlarini yanada rivojlantirishlari lozim.

Nazariy o‘rganilgan bilimlar bilan birgalikda amaliyotda egallangan pedagogik tajriba asta-sekinlik bilan oshib borishi natijasida pedagogda kasbiy kompetentlik shakllanib boradi. Uning rivojlantirilishi sur’ati pedagogning o‘z ustida ishlashi va tinimsiz izlanishi natijalariga asoslanadi. Avvalo, pedagogning psixologik-pedagogik kompetentligi kasbiy va shaxsiy sifatlari orqali paydo bo‘ladi.

Biroq, kasbiy-ijodiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi nafaqat amaliy ko‘nikma va malakalarning integrasiyasi, mutaxassis sifatida faoliyatni samarali tashkil etish usul va vositalarini ishlab chiqishni emas, shu bilan birga kasbiy ijodkorlik metodologiyasidan xabardor bo‘lish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarining yetarli darajada o‘zlashtirilishi taqozo etadi. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o‘zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur’ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog‘liq.

Bugungi kunda zamonaviy sharoitda tarbiyachi-pedagogning yangicha yondoshuv sifatlariga ega bo‘lishi davr talabi xisoblanadi. Pedagogning tajribali malakaga ega bo‘lishi o‘z ustida ishlay olishi ham ahamiyatli tomonlaridan sanaladi. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari quydagilardan iborat.

- O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
- O‘zini rivojlantirishni rejorashtirish maqsad, vazifa belgilash;
- O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish;

Pedagog faoliyatida pedagogik qobiliyat va uning o‘ziga xos tomonlari Pedagog shaxsi, mulohazali, bosiq, har qanday pedagogik vaziyatni to‘g‘ri baholay

oladigan hamda mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiq qolishi lozim. Muloqot jarayonida pedagogning muloqatdoshiga nisbatan xayrihohlik, samimiylit, do'stona munosabat, yaxshi kayfiyat bilinib tursa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bugungi kunda jamiyatning pedagoglik kasbiga nisbatan qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri tashkil qilish vazifasi pedagoglarimizga bog'liq.

Ijodiy faoliyat olib boruvchi pedagog faqatgina ta'lim oluvchilarini muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalashdan iborat emas balki, ilg'or pedagoglar ish tajribalarini o'rghanish bilangina cheklanib qolmasdan, tadqiqotchilik ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur hisoblanadi. Bugungi kunda zamon pedagog fan va texnika taraqqiyotining eng so'nggi yutuqlaridan foydalanishi, o'z kasbiy faoliyatida yangi pedagogik texnologiyalarni unumli qo'llay olishini taqozo etadi. Pedagogik mahoratga erishish pedagogning muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshirilib boradi.

Tarbiyachilarda pedagogik mahorat yuksak darajada pedagogik faoliyatining taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqorolik va kasbiy mavqeini ifodalab o'zida mujassamlashtirib boradi. Hozirgi zamon pedagog shaxsi uchun eng muhim asos bu insonparvarlik. yosh pedagoglarimiz ayni vaqtda o'zi o'qiyotgan fan sohasidagi yutuqlardan, yangiliklardan xabardor bo'lishi kerak hamda tarbiyalanuvchilarini har kunlik faoliyatlarni o'rgatib borish uchun o'zi muntazam kasbiy salohiyatini oshirib, o'z bilimini to'ldirib, chuqurlashtirib borishi kerak. Demak, tarbiyachi mahoratining asosiysi o'z ustida mustaqil o'qishidir.

Pedagoglik kasbi sharaflı, lekin juda murakkab kasblardan biri hisoblanadi. Sohadagi rivojlanishlar yaxshi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'ziga yetarli emas. Chunki pedagogik sohadagi nazaryalarda tarbiyachilarni bilim berish va tarbiyalash haqida umumiyl qonuniy prinsiplar, umumlashtirilgan fikrlar bayon etiladi, yosh individual jihatlari e'tiborga olish ta'kidlanadi. Pedagog nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

Tarbiyachining kasbiy qobilyati bu ma'lum shaxsiy va kasbiy fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik psixologik, usuliy tayyorgarligida, o'quvchilarni tarbiyalashning turli yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun tarbiyachining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi. Murabbiy faoliyat mahoratini qanday fazilatlar belgilaydi?

Mohir avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analarni bo'lishi va ularni yoshlar ongiga yetkazib tarbiyalanuvchilarni ota bobolarimiz yaratgan boy merosga hurmatni tarbiyalay olishi kerak. Buning uchun avvalo murabbiyning o'zi milliy qadriyatlarning mohiyat mazmunini chuqur anglashi, ularga hurmat e'tiqoda bo'lishi, ijtimoiy hayot qonunlarini aniq tushunish, milliy-ahloqiy qadriyat, mafkura mazmunini anglash oquvchilarda bobolar, avlodlar ruhiga hurmatni, ilmiy dunyoqarash

asoslarini tarbiyalash uchun muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Pedagoglik kasbi sohalariga quydagilar kirdi:

- bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish;
 - pedagogik ishni sevish, ruhiy pedagogik ziyraklik;
 - kuzatuvchanlik, pedagogik nazokat, pedagogik tasavvur;
 - tashkilotchilik qobiliyati, xaqqoniylilik, dilkashlik, talabchanlik qat’iylik;
 - maqsadga intilish, vazminlik, o’zini tuta bilish kasbiy layoqatlilik;
- Mutaxassislarimizning pedagog kreativlik potensialiga ega bo’lishi uchun kasbiy faoliyatida quydagilarga e’tiborini qaratishi zarur:
- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
 - yangi-yangi g’oyalarni yaratishda faollik ko`rsatish;
 - ilg‘or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o’rganish;
 - hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o’zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi. Pedagog o’z-o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o’qib-o’rganish, o’z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo’lgani kabi bo’lajak tarbiyachilarning kreativlik qobiliyatiga ega bo’lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo’yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlanishiga boriladi. Bunda pedagogning o’zini o’zi ijodiy faoliyatga yo’naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur. Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o’z oldiga muammoli masalalarni qo’yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo’lgan dalillar bilan to’qnash keladi. Buning natijasida o’z ustida ishslash, mustaqil o’qib o’rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

Psixologik nuqtai nazardan qaralganda kompetentlik noan’anaviy holatlarda, kutilmagan holatlarda mutaxassisning o’zini qanday tutishi, muloqotga kirishish raqiblar bilan o’zaro munosabatlarda to’g’ri yo’l topishi anniq bo’lmagan holatlarda, to’siqlarga to’la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda to’g’ri yechim topishni anglatadi. Pedagoglarning kasbiy sifatlarining muhim tomonlarini o’rganish hamda uni ilmiy jihatdan asoslash pedagogika fanlarining ham ustuvor asosiy vazifalaridan biri bo’lib kelmoqda.

Psixolog olim M.G. Davletshin tadqiqot natijalariga tayangan holda pedagoglarning psixologiyasi haqida qimmatli ma’lumotlarni taqdim etadi. Uning fikricha, zamonaviy tarbiyachi yoki pedagog shaxsiy va kasbiy sifatlari uning kasbiy tayyorgarligi va mehnat faoliyati davomida uzluksiz rivojlanib, takomillashib boradi. M.G.Davletshin hozirgi ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogda shaxsiga, kasbiga xos xislat va fazilatlarning mujassam bo’lishi,

ulardan o‘qitish va tarbiyalash jarayonida o‘rinli, me’yorida foydalana olish zarurligini nazarda tutadi. Olim o‘zining tadqiqotlarida pedagogning quydagи xislatlarini ko‘rsatadi.

- shaxsiy xislatlarning mavjudligi;
- kasbiy bilimning mavjudligi;
- kasbiy xislatlarning yuqoriligi;
- shaxsiy pedagogik uddaburonligi;
- tashkilotchilik malakalarining mavjudligi;
- kommunikativ malakalarning mavjudligi;
- gnostik malakalari yetarli ekanligi;
- ijodiy xislatlari mavjud ekanligini ko‘rsatib o‘tadi.

Olimning mulohazalariga ko‘ra, bulardan tashqari yana pedagoglarda ezgu maqsad sari intilishi, mehnatsevarligi, qat’iyligi, kamtarligi, haqgo‘yligi, sadoqatli bo‘lishi, namunali xulqi, o‘zini tuta bilishi, tashqi qiyofasi, xislatlari mavjudligini aytadi. Demak uning milliy va umuminsoniy axloqiy me’yorlariga mos keluvchi sifat hamda fazilatlarni egallashi uning o‘z kasbiy faoliyatiga tayyorligi va o‘quvtarbiya jarayoni samarasini ta’minlovchi muhim omillar ekanligini e’tirof etadi.

Tatqiqotchilar K.Markova hamda B.Nazarovalarning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari ko‘rsatib o‘tilgan. Yosh mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasi pedagogik jarayonni ijobiy, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlab boradi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi uchun pedagog o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur.

Yana bir tadqiqotchilardan biri bo’lgan F.N.Gonobolin pedagog hodimlarda quyidagi qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi haqida ta’kidlaydi:

- tushuna olish qobiliyati;
- yosh, psixologik jihatdan barcha tarbiyanuvchilarni o‘zlashtira oladigan materiallarni taqdim eta olish qobiliyati;
- qiziqishlarini rivojlantirish qobiliyati;
- tashkilotchilik qobiliyati;
- pedagogik takt;
- o‘z ishining natijalarini ko‘ra olish qobiliyati;

O‘qituvchi shaxsida kasbiy muhim sifatlar xorij psixologlarning izlanishlari ilmiy tadqiqotlarini o‘rganar ekanmiz, yosh pedagoglarning kasbiy muhim sifatlarining psixologik asoslari va bu jarayonga turki bo’luvchi ijtimoiy-madaniy, milliy-hududiy va pedagogik psixologik omillarning ahamiyatiga doir samarali ilmiy natijalar qayd etganligini ko‘rishimiz tabiiy.

Hozirgi kundagi ijtimoiy o‘zgarishlar har bir yosh tarbiyachini yangicha fikrlashga, kasbiy faoliyatini tashkil etishda kryativ yondoshishga, tadbirkorlik, ishbilarmonlik asosida ish yuritishga da’vat etadi. Bu esa pedagogik kompetentlikning shakllanganligiga uni amaliyatga qay yo‘sinda tatbiq etayotganligiga bog‘liqdir. Pedagogik kompetentlik pedagogik faoliyat jarayonida tarkib topib o‘sib boradi. Pedagogik jarayon kasbiy va shaxsiy tayyorgarlikni izchil yo‘lga qo‘yib, yosh avlodni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat,

millat va kelajak avlod oldida javob beradigan shaxslarni tayyorlashga xizmat qiladi. Yosh pedagoglarning pedagogik-psixologik kompetentligini shakillantirish uchun tarbiyachi mutaxassislarimiz pedagogik hamda psixologik fanlarini chuqr o‘zlashtirishlari lozim.

Tarbiyachilarimiz uchun pedagogik tajribaning ahamiyati alohida kasb etadi, u pedagogni o‘rgatadi, tarbiyalaydi, rivojlantiradi. Pedagogika va psixologiyaning ilg‘or g‘oyalari bilan mohiyatan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, fan yutuqlari va qonuniyatlariga asoslangan bilim, malaka, ko‘nikmalari, o‘qituvchi pedagoglarda rivojlanib boradi. Amaliyotda esa o‘rganilgan nazariy ma’lumotlar eng ishonchli asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Kompitensiyaviy yondashuv asosida tarbiyachilarning Innovatsion kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi.Journal.10.26739/2181-9513 Toshkent-2020
- 2.Лукъянова Н.И. Психолого-педагогическая компетентность учителя. Диагностика развития / Н.И. Лукъянова. - М., 2004 г.
3. Muslimov N. A , Usmonboyev M.X ,Sayfurov D M , To’rayev A. B .Pedagogik kompetentlik va kryativlik asoslari-Toshkent, 2015 y
4. Mahkamova M.Yu. Bo‘lajak pedagoglarning pedagogik muloqot madaniyatini shakllantirish: Ped.fanl.nomz. diss. avtoref. – T.:1999-y.